

GEOGRAFIYA FANIDAN MILLIY TEST TIZIMI UCHUN TEST SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur test spetsifikatsiyasining maqsadi talabgorlarning umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimi doirasida geografiya fanidan shakllantiriladigan test topshiriqlari tarkibi va mazmuniga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

I. GEOGRAFIYA FANIDAN MILLIY TEST TIZIMI UCHUN SHAKLLANTIRILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI MAZMUNINI BELGILOVCHI ME'YORIY HUJJATLAR

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-oktabrdagi "Umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to'g'risida"gi 646-son qarori;
- geografiya faniga oid amaldagi davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari.

II. QAMRAB OLINGAN BO'LIMLAR

Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi asosida geografiya fanining quyidagi bo'limlari qamrab olinadi:

I. Tabiiy geografiya:

- a) geografik qobiq;
- b) materiklar va okeanlar tabiati;
- d) O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiatining va tabiat komplekslarining geografik tavsifi.

II. Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya:

- a) O'zbekiston iqtisodiyotining umumiy geografik va regional tavsifi;
- b) jahon xo'jaligining umumiy geografik va regional tavsifi;
- d) aholi geografiyasi va demografiya;
- e) tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar (geoekologiya).

III. Geografik xaritalar.

IV. Umumgeografik qonuniyatlar asosida masala, misol va topshiriqlar.

III. TEST TOPSHIRIQLARINING TURLARI

Geografiya fanidan talabgorning bilish darajasi baholashning milliy test sinovida quyidagi **test topshirig'ining** turlari yordamida tekshiriladi:

Y-1 – bitta to'g'ri javobga ega bo'lgan muqobil javobli yopiq test topshirig'i;

Y-2 – moslashtirishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test topshirig'i;

O-1–qisqa javobni talab qiladigan strukturalashtirilgan (**a** va **b** bandlarga bo'lingan) ochiq test topshirig'i;

O-2–qisqa javobni talab qiladigan strukturalashtirilgan (**a** va **b** bandlarga bo'lingan) ochiq test topshirig'i.

IV. GEOGRAFIYA FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI FORMATI

Bo'lim	Topshiriqlar soni	№	Test turi	Ball
Geografiya fani tizimi haqida tushuncha. Geografiya fanining tarixi va hozirgi davrdagi rivojlanishi	1	1	Y-1	1,3
Geografik xaritalar	1	2	Y-1	2,2
Geografik qobiq	2	3	Y-1	1,3
		4	Y-1	2,2
Okeanlar tabiati	2	5	Y-1	1,3
		6	Y-1	2,2
Materiklar tabiati	4	7	Y-1	1,3
		8	Y-1	2,2
		9	Y-1	2,2
		10	Y-1	3,2
O'rta Osiyoning tabiiy geografik tavsifi	2	11	Y-1	1,3
		12	Y-1	2,2
O'zbekiston tabiatining va tabiat komplekslarining geografik tavsifi	3	13	Y-1	1,3
		14	Y-1	2,2
		15	Y-1	3,2
O'zbekiston iqtisodiyotining umumiy geografik va regional tavsifi	2	16	Y-1	1,3
		17	Y-1	2,2
Jahon xo'jaligining umumiy geografik va regional tavsifi	4	18	Y-1	1,3
		19	Y-1	2,2
		20	Y-1	2,2
		21	Y-1	3,2
Jahon mintaqalarining va davlatlarining tabiiy sharoiti va tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligi	3	22	Y-1	1,3
		23	Y-1	2,2
		24	Y-1	3,2
Tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar (geoekologiya)	1	25	Y-1	2,2
Aholi geografiyasi va demografiya	3	26	Y-1	1,3
		27	Y-1	2,2
		28	Y-1	2,2
Okeanlar tabiati (xarita)	1	29	Y-1	2,2
Materiklar tabiati (xarita)	1	30	Y-1	2,2
O'rta Osiyoning tabiiy geografik tavsifi (xarita)	1	31	Y-1	2,2
O'zbekiston tabiatining va tabiat komplekslarining geografik tavsifi (xarita)	1	32	Y-1	2,2
Mavzular doirasida moslashtirishni talab etadigan testlar	3	33	Y-2	2,2
		34	Y-2	2,2
		35	Y-2	2,2
Geografik xaritalar. Vaqt o'lchovi, soat mintaqalari	2	36	O-2	3,2
		37	O-2	3,2
Geografik qobiq	2	38	O-2	3,2
		39	O-2	3,2
Materiklar tabiati	1	40	O-1	2,2
O'zbekiston iqtisodiyotining umumiy geografik va regional tavsifi	1	41	O-1	2,2
Jahon xo'jaligining umumiy geografik va regional tavsifi	1	42	O-1	2,2
Aholi geografiyasi va demografiya	2	43	O-2	3,2

		44	O-2	3,2
Jahonning geosiyosiy tavsifi	1	45	O-1	2,2
Jami:		45		100
Test topshiriqlarini bajarish uchun ajratilgan umumiy vaqt – 150 daqiqa				

V. FAN MAZMUNINING TARKIBI

№	Baholanadigan mazmun elementi
1.1	1. Tabiiy geografiya
	Geografiya fanlari tizimi haqida tushuncha. Geografiya fanining tarixi va hozirgi davrdagi rivojlanishi. Geografiya nimani o'rganadi? Geografik kashfiyotlar va hozirgi zamon geografiyasi. "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" kursida nimalar o'rganiladi? O'rta Osiyoning geografik tekshirilish tarixi. Iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaga kirish. Geografiya fanlari tizimi haqida tushuncha. Geografiya fanining tarixi va hozirgi davrdagi rivojlanishi.
	Geografik xaritalar
1.2	Azimut va masofani o'lchash. Joy balandligi. Masshtab. Geografik xaritalar va ularning turlari. Geografik koordinatalar. Atlaslar, globuslar. Xarita andazalari, shartli belgilari. Xaritalardan foydalanish. Topografik xaritalar, ulardan foydalanish. Iqtisodiy-ijtimoiy xaritalar. Vaqt o'lchovi, soat mintaqalari, taqvimlar.
	Geografik qobiq
1.3	Quyosh, Oy va yulduzlar. Yerning shakli va o'lchamlari. Yerning o'z o'qi atrofida va Quyosh atrofida aylanishi. Yerning qobiqli tuzilganligi. Geografik qobiq va tabiat komplekslari. Geografik qobiq haqida tushuncha. Geografik qobiqning umumiy qonuniyatlari. Geografik qobiqning kenglik zonalligi va sektorligi. Geotizimlar va ularning pog'onasimonligi. Tabiiy geografik jarayonlar. Materiklar va okeanlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Yer yuzi tabiatining rivojlanish tarixi. Yerning ichki tuzilishi va tektonik jarayonlar. Litosfera. Tog' jinslari. Tuproqlar haqida tushuncha. Yer po'stining harakatlari. Yer yuzasi relyefining asosiy shakllari. Hidrosferaning tarkibi. Dunyo okeani. Daryolar. Ko'llar va muzliklar. Yerosti suvlari. Atmosferaning tuzilishi. Havo harorati va bosimi. Shamol. Havo namligi va yog'inlar. Ob-havo va iqlim. Yerning iqlim mintaqalari. Tabiat zonalari.
	Okeanlar tabiati
1.4	Dunyo okeani va uning qismlari. Dunyo okeani tubining geologik tuzilishi va relyefi. Okean suvining xususiyatlari. Dunyo okeanining atmosfera va quruqlikka ta'siri. Atlantika, Hind, Tinch va Shimoliy Muz okeanlarining asosiy xususiyatlari, geografik o'rni, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, okean tubi relyefi, suvining harorati va sho'rliqi, oqimlari, organik dunyosi, iqlim mintaqalari.
	Materiklar tabiati
1.5	Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Antarktida, Janubiy Amerika, Shimoliy Amerika, Yevrosiyo materiklarining geografik o'rni, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, relyefi, iqlimi, ichki suvlari, iqlim mintaqalari va tabiat zonalari, tabiiy geografik o'lkalari.
	O'rta Osiyo o'lkasining tabiiy geografik tavsifi
1.6	O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasi haqida tushuncha. O'rta Osiyoning geologik tuzilishi, hududining rivojlanish tarixi, foydali qazilmalari, relyefi, iqlimi, suvlari, tuproqlari, o'simliklari, hayvonot dunyosi, tabiat zonalari. O'rta Osiyoning kichik o'lkalari va tabiiy rayonlari.
1.7	O'zbekiston tabiatining va tabiat komplekslarining geografik tavsifi

	Yer yuzasi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari, iqlimi, ichki suvlari, tuproqlari, o‘simliklari, hayvonot dunyosi. Tabiat komplekslari tavsifi. Chirchiq-Ohangaron, Farg‘ona, Mirzacho‘l, O‘rta Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Quyi Zarafshon, Qizilqum, Quyi Amudaryo, Ustyurt, Orol tabiiy geografik okruglarining tavsifi (relyefi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari, iqlimi, ichki suvlari, tuproqlari, o‘simliklari, hayvonot dunyosi).
2.1	2. O‘zbekiston iqtisodiyotining umumiy geografik va regional tavsifi
	O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining tuzilishi. Sanoat – milliy iqtisodiyotning tayanch tarmog‘i. Sanoat tarmoqlari: yoqilg‘i-energetika majmuasi, kimyo sanoati, qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, yog‘ochni qayta ishlash sanoati, qurilish materiallari sanoati, agrosanoat majmuasi. Sanoatni hududiy tashkil etish hamda joylashtirish shakllari. Transport geografiyasi. Aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari, rekreatsiya va turizm. Tashqi iqtisodiy aloqalar. O‘zbekiston iqtisodiyotini hududiy tashkil etish: Toshkent, Mirzacho‘l, Farg‘ona, Zarafshon, Janubiy, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlariga geografik tavsif.
2.2	Jahon xo‘jaligining umumiy geografik va regional tavsifi
	Jahon mamlakatlarining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanganligi bo‘yicha tasnifi. Jahon xo‘jaligi va xalqaro mehnat taqsimoti. Jahon iqtisodiyoti markazlari va xalqaro integratsiya jarayonlari. Fan-texnika inqilobi va ishlab chiqarishning rivojlanishiga innovatsion texnologiyalarning ta‘siri. Jahon energetikasi, metallurgiya va kimyo sanoati, mashinasozligi va yengil sanoati geografiyasi, jahon dehqonchiligi, chorvachiligi va baliqchiligi geografiyasi. Jahon transporti geografiyasi. Xalqaro iqtisodiy aloqalar geografiyasi. Yevropa mamlakatlarining iqtisodiyoti. Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Rossiya mamlakatlarining xo‘jaligiga tavsif. Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanganligi. Markaziy Osiyo mamlakatlari (Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston) ning xo‘jaligiga tavsif. Osiyo mamlakatlari: Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Pokiston, Xitoy, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Hindiston, Fors qo‘ltig‘i davlatlari, Indoneziya, Malayziya, Singapur mamlakatlarining xo‘jaligiga tavsif. Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Amerika mamlakatlari xo‘jaligi. JAR, Nigeriya, Misr, Avstraliya Ittifoqi, AQSh, Kanada, Braziliya mamlakatlarining xo‘jaligiga tavsif. Yevropa subregionlari. Lotin Amerikasi. Karib havzasi orol mamlakatlari. Afrika subregionlari. Okeaniya davlatlari. Janubi-g‘arbiy va Janubiy Osiyo davlatlari. Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari.
2.3	Jahon mintaqalari va mamlakatlarining tabiiy sharoiti va tabiiy resurslar bilan ta‘minlanganligi. Tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar
	Yerning hayot qobig‘i – biosfera. Tabiiy boyliklar va ularning inson uchun ahamiyati. Okean boyliklari, ulardan foydalanish va muhofaza qilish, okeanlarda insonning xo‘jalik faoliyati. Afrika, Avstraliya, Janubiy Amerika, Shimoliy Amerika, Yevrosiyo materiklari aholisining tabiatga ta‘siri. Antropogen tabiat komplekslar. O‘rta Osiyoning ekologik muammolari va tabiatni muhofaza qilish. O‘zbekistonning tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari. O‘zbekistonning tabiiy boyliklari va ularni muhofaza qilish. O‘zbekistonning geoekologik muammolari. Dunyoning tabiiy resurslari. Jahon mintaqalari va mamlakatlarining tabiiy sharoiti va resurslari. Zamonaviy ekologik muammolar. Sanoat va ekologik muammolar. Jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar. Antropogen landshaftlar. Tabiatni muhofaza qilishning geografik asoslari. Geografik baholash. Geografik prognoz. Atrof-muhit monitoring va geografik-ekologik ekspertiza asoslari.
2.4	Aholi geografiyasi va demografiya
	Yer yuzi aholisi, irqalar. Afrika, Avstraliya, Janubiy Amerika, Shimoliy Amerika, Yevrosiyo materiklarining aholisi. O‘rta Osiyo aholisi. O‘zbekiston aholisi va uning tarkibi. Aholi punktlari. Dunyo aholisi va zamonaviy demografik vaziyat. Jahon aholisining soni, o‘sishi va joylashuvi, jinsiy, yosh, irqiy, etnik, diniy tarkibi. Jahon mintaqalari va mamlakatlarining aholisi. Jahon mamlakatlarining urbanizatsiyasi. Urbanizatsiya jarayonining global va regional jihatlarini. Xalqaro migratsiya jarayonlari va muammolari.
2.5	Jahonning geosiyosiy tavsifi
	Jahonning siyosiy xaritasi. O‘rta Osiyo siyosiy xaritasi. O‘zbekistonning geografik o‘rni va ma‘muriy-hududiy tuzilishi. Mamlakatlarning boshqaruv shakli va davlat tuzilishi. Yevropa, Osiyo, Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Amerika mintaqalarining geografik o‘rni, chegaralari va siyosiy xaritalari. Jahon mamlakatlari va poytaxtlari, pul birliklari,

	Dunyoning geosiyosiy tizimi va uning shakllanishi. Jahondagi zamonaviy geosiyosiy vaziyat. Davlatlarning integratsion uyushmalari. Insoniyatning global muammolari. O‘zbekistonning geosiyosiy o‘rni va munosabatlari.
--	--

VI. Geografiya faniga oid kognitiv ko‘nikma darajalari

quyi kognitiv daraja	<ul style="list-style-type: none"> – fan mazmuni tarkibiga kiritilgan geografik ma’lumotlarni bilish, eslab qolish, tushunish va tushuntirish – yangi vaziyatda fan mazmuni tarkibiga kiritilgan ma’lumotlardan foydalanishni bilish – geografiyaning barcha bo‘limlaridan olingan bilimlarni turli jarayonlarga qo‘llay olish asosida sodda amaliy topshiriqlarni yechish – yozuvsiz xarita, grafik, jadval va rasmlarda aks ettirilgan nazariy bilimlarni bilish, tushunish, qo‘llay olish va tahlil qila olish
yuqori kognitiv daraja	<ul style="list-style-type: none"> – geografiyaning barcha bo‘limlaridan olingan bilimlarni tushunish, tahlil qilish, taqqoslash, turli jarayonlarda qo‘llay olish – diagramma, grafik, jadval va rasmlarda berilgan geografik ma’lumotlarni tahlil qila olish, murakkab amaliy topshiriqlarni yechish – geografiyaning barcha bo‘limlaridan olgan bilimlarni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish.

VII. Geografiya fanidan test sinovlari yordamida tekshiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar

Geografiya faniga oid test topshiriqlari talabgorlarning (o‘qituvchi va o‘quvchilarning) nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasini, ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan topshiriqlardan iborat. Mazkur test topshiriqlarini shakllantirishda amaldagi davlat ta’lim standarti va umumta’lim o‘quv dasturlarida o‘zlashtirilishi belgilab qo‘yilgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar asos sifatida qaraladi.

Fan	Tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar	
Geografiya	1. Tabiiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi	<p>– Yer yuzidagi tabiiy jarayon va hodisalarni, Yer yuzi tabiatining xilma-xilligini keltirib chiqaruvchi asosiy geografik omil va qonuniyatlarni, geografik qobiq va uning tarkibiy qismlarida kechadigan tabiiy hodisa hamda jarayonlarning mohiyatini, geografik qobiqning asosiy qonuniyatlarini biladi, tushunadi, tahlil qila oladi;</p> <p>– okeanlarning, materiklarning, O'rta Osiyoning, O'zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslariga tavsif bera oladi, ularning hududiy xususiyatlarini biladi, tushunadi, tahlil qiladi va o'zaro taqqoslay oladi;</p> <p>- geografik bilimlar asosida tabiiy jarayon va hodisalarga doir amaliy topshiriqlarni yecha oladi.</p>
	2. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi	<p>– O'zbekiston va Jahon xo'jaligiga va regionlariga umumiy geografik tavsif bera oladi;</p> <p>– iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi geografik omillarni;</p> <p>– aholi va ishlab chiqarishning joylashuviga ta'sir etuvchi geografik omillarni, aholi dinamikasi va tarkibi, zamonaviy demografik jarayonlar, urbanizatsiyaning mohiyatini;</p> <p>– jahondagi geosiyosiy vaziyat, ro'y berayotgan geosiyosiy o'zgarishlar, insoniyatning global muammolarini biladi, tushunadi va tahlil qila oladi.</p> <p>– fanga oid bilimlardan foydalanib mustaqil ravishda tegishli xulosalar chiqara oladi, geografik bilimlar asosida iqtisodiy-ijtimoiy jarayon va hodisalarga doir amaliy topshiriqlarni yecha oladi.</p>
	3. Globus, geografik atlas va xaritalardan foydalana olish kompetensiyasi	<p>– geografik xaritalar va ularning turlari, atlaslar, globuslar, xarita andazalari va shartli belgilarini biladi va tushunadi, geografik xaritalar, topografik xaritalar, yozuvsiz xaritalardan amalda foydalana oladi;</p> <p>– vaqt o'lchovi, soat mintaqalari, taqvimlar haqidagi ma'lumotlarni tushunadi hamda ulardan amalda foydalana oladi.</p>
	4. Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi	Global, regional va lokal ekologik muammolarni, tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni, tabiiy resurslarning jamiyat hayotidagi tutgan o'rnini biladi, tushunadi, tahlil qila oladi.

VIII. BAHOLASH MEZONLARI

Har bir test topshirig'i turiga qarab turli baholash mezonlari asosida baholanadi.

1. Bitta to'g'ri javobga ega bo'lgan muqobil javobli yopiq test topshirig'i (Y-1)ning baholash mezoni:

a) agar belgilangan javob to'g'ri bo'lsa, qiyinlik darajasiga ko'ra 1,3; 2,2; 3,2 ball;

b) agar belgilangan javob noto'g'ri bo'lsa, 0 ball beriladi.

2. Moslashtirishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test topshirig'i (Y-2)ning baholash mezoni:

a) agar belgilangan javob to'g'ri bo'lsa, 2,2 ball;

b) agar belgilangan javob noto'g'ri bo'lsa, 0 ball beriladi.

3. Qisqa javobni talab qiladigan strukturalashtirilgan (a va b bandlarga bo'lingan) ochiq test topshirig'i (O-1)ning baholash mezoni:

a) agar faqat **a** banddagi javob to'g'ri bo'lsa, 1,1 ball;

b) agar faqat **b** banddagi javob to'g'ri bo'lsa, 1,1 ball;

d) agar **a** va **b** bandlardagi javoblar to'g'ri bo'lsa, 2,2 ball;

e) agar **a** va **b** bandlardagi javoblar noto'g'ri bo'lsa, 0 ball beriladi.

4. Qisqa javobni talab qiladigan strukturalashtirilgan (a va b bandlarga bo'lingan) ochiq test topshirig'i (O-2)ning baholash mezoni:

a) agar faqat **a** banddagi javob to'g'ri bo'lsa, 1,5 ball;

b) agar faqat **b** banddagi javob to'g'ri bo'lsa, 1,7 ball;

d) agar **a** va **b** bandlardagi javoblar to'g'ri bo'lsa, 3,2 ball;

e) agar **a** va **b** bandlardagi javoblar noto'g'ri bo'lsa, 0 ball beriladi.

Izoh: Mazkur hujjatga aprobatsiya natijasi, vakolatli davlat tashkilotlarining tegishli qaror va buyruqlari asosida qo'shimchalar, o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritilishi mumkin.